

**YANGI O‘ZBEKISTON ILM-FAN TARAQQIYOTIDA IJODIY
ZIYOLILARNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI**

*Ochilova Dilobar Juraqulovna,
Alfraganus universiteti, Tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirar ekan, har bir xalq faqat erkin va ozod bo‘lgan taqdirdagina, o‘z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etish huquqiga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”, – deydi davlat rahbari [1].

E’tibor bersak, har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat – davlatning e’tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta’lim-tarbiya ustuvor bo‘lgan. Bundan tashqari, insonlarda yuksak axloq, ilm-fanga tashnalik bilan birga, borliq sirlarini ochish va yangi ilm yaratishga ishonch kuchli bo‘lgan. Olimlar o‘zlari bilmagan holda, bugun tarixchilar e’tirof etayotgan Renessans davrining ijrochilariga aylangan.

Har ikki Renessans davrida davlat rahbarlari, olimu fuzalolar, birinchi navbatda, yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviyati, iymon-e’tiqodi masalasiga alohida e’tibor qaratishgan. Deyarli barcha allomalar asarlarida ta’limni tarbiya bilan uyg‘un olib borish lozimligi haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida ilm va odob-axloq uyg‘unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o‘zaro do‘stligi va hamkorligi, obod turmush to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Mutafakkir “Bola badanining bo‘g‘inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog‘i eshitish va gapni

ma'qullash uchun tayyor bo'lib, vujudi ilm va odob o'rganishga hozir bo'lganda unga ilm va odob o'rgatish kerak", deb yozadi [2].

Respublikamizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari ham mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etgan. Shu yo'lda ular o'zlarining jonlarini ham qurbon qiladi hamda "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bilgan [3]. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bu davrda esa Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab fidoyi insonlar Milliy uyg'onish va Millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etadi. Lekin jadid ma'rifatparvarlarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Xususan, tadqiqotchi olim Shamsuddinovning maqolalarida dastlab podsho Rossiyasi, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qilgan [4]. Buning oqibatda milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati O'zbekistonimiz uchun yorqin xotira sifatida qoldi. Yurtimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi olim Shahnoza Nazarovaning fikricha, bundan bir asr muqaddam ko'nglimizga, xalqimiz shuuriga istiqlol, ma'rifat urug'ini qadab ketgan jadid bobolarimiz haqli ravishda eslanishga, unutilmaslikka munosib. Zotan, bugun ularni faqat biz emas, balki afkor omma e'tirof etadi, xizmatlarini

tan oladi. Dunyoning turkiy xalqlar jadid adabiyotini o'rganayotgan yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari bobolarimiz merosi tadqiqiga alohida e'tibor bilan yondashayotgani fikrimiz dalilidir.

Albatta, Birinchi va Ikkinchi Renessans kabi Uchinchi Renessans ham uzoq davom etadigan jarayon. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni besh-o'n yil emas, ancha katta va mashaqqatli davrni talab qiladi. Buning uchun, avvalo, minglab iste'dodli kadrlar, iqtidorli zamonaviy yoshlar, fidoyi insonlar nihoyatda zarur. Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda ulug' niyatlar bilan poydevori qo'yilayotgan Yangi Uyg'onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda.

Uchinchi Renessans poydevori ta'lim tizimidan boshlanadi. Ta'lim tizimining quyi bo'g'ini – maktabgacha ta'lim muassasasi va umumta'lim maktablari bo'lib, professional va oliy ta'limda yanada mustahkamlanadi. Shuning uchun mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar yaxlit, ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olgan holda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishning taklif etilishi, maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish, qator oliy ta'lim muassasalarini o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tkazish, ta'lim sohasini to'liq raqamlashtirish, davlat-hususiy sheriklik mexanizmlarini ta'lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligini ta'kidlab o'tadi [5].

Umuman olganda, Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilishi 2016-yilning dekabr oyi so'ngida, yurtimiz ilm-fani fidoyilari – akademiklar bilan bo'lgan uchrashuvda boshlangan edi. Shavkat Mirziyoyev prezidentlik www.tadqiqotlar.uz *14-to'plam 3-son dekabr 2024*

faoliyatining ilk davridanoq ilm-fan rivojisiz hamda jamiyat a'zolarining ma'naviy darajasiz mamlakatni rivojlantirib bo'lmashligiga alohida e'tibor qaratdi. Tadqiqotchi olim Abduxalil Mavrulovning fikricha, Uchinchi Renessansga qo'yilgan ilk qadamlar uning quyidagi dinamikasiga bog'liq. Xususan, 2017-yil 14-sentabr kuni Prezident Sh. Mirziyoyevning qarori bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlariga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi. O'sha yilning 29-noyabrida Prezident farmoni bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi [6]. Uchinchi Renessansga qo'yilgan qadamlar haqida gapirganda, mamlakat rahbarining iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularning iste'dodini yuzaga chiqarish maqsadida 2019-yil 30-avgustda "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [7] qarori hamda mazkur hujjat asosida Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida tashkil etilgan "Yoshlar akademiyasi"ni eslash lozim.

Ilm-fanning barcha sohalarida muntazam Uchinchi Renessansga poydevor qo'yish xalqimizni, ayniqsa, yigit-qizlarimizni yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, allomalar tomonidan asrlar davomida yaratilgan adabiy-badiiy meros bilan tanishtirishdan boshlanadi. Ammo bu jarayon ijtimoiy-gumanitar fanlarga alohida e'tiborni talab qiladi. Shu ma'noda mamlakat rahbarining mazkur Uyg'onish davri falsafasini juda chuqur va har tomonlama, teran ishlab chiqayotganini ham qayd etish lozim. Haqiqatan ham, yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessansga poydevor qo'yish xalqimizni, ayniqsa, yigit-qizlarimizni yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, allomalar tomonidan asrlar davomida yaratilgan adabiy-badiiy meros bilan tanishtirishdan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ota-bobolarimizning o'tmishda ilm-fan sohasida

amalga oshirgan ishlari, yaratgan yangiliklari, kashfiyotlari nafaqat ular barpo etgan mamlakatlar, xalqlar ravnaqi uchun xizmat qilgan, balki dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish uchun yo'l ochib bergan, insoniyatning ma'naviy kamolotida, hayot taraqqiyotida nihoyatda muhim rol o'ynagan. Bugun ona zaminda bir haqiqat – ilm-fan rivojisiz hayotda yuksak taraqqiyotga erishib bo'lmastligi kunday ayon. XXI asrning ilm-fan, texnologiyalar asriga aylanishi asosida ham ana shu haqiqat yotadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ilm-fanni yuksaltirish, ma'naviyatni kamol toptirish borasida ajdodlarimiz yaratib ketgan merosiy an'analarni rivojlantirishga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida e'tibor bermoqda.

REFERENCES

1. Янги Ўзбекистон/Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда. 31 август 2020, 10490.
2. Комолова К. Ренессанс яратадиган авлодни тарбиялашга кучимиз ҳам, қудратимиз ҳам, имкониятимиз ҳам етади / Янги Ўзбекистон. 2021 йил август. № 167–сон.
3. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Соҳилсиз денгиз (Имом Бухорийнинг ҳаёт саҳифалари). – Тошкент: Nilol-nashr 2022.
4. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда совет бошқарув тизимидаги раҳбар ходимларнинг қатағон қилиниши ҳақида янги маълумотлар / Ўзбекистонда совет давлатининг қатағон сиёсати: келиб чиқиши сабаблари ва фожиали оқибатлари” илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2012. – Б. 42–64.
5. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2020. – 120 б.
6. Маврулов А. Учинчи Ренессанс – муносиб келажак пойдевори / Янги Ўзбекистон, 2020 йил 6 октябрь, 190-сон. – Б. 5.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 30.08.2019 йилдаги ПҚ–4433-сон. Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида.